XALQ DEPUTATLARI SHAROF RASHIDOV TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 1-may VII-6-75-3-46-K/25 Sharof Rashidov tumani

Xalq deputatlari Sharof Rashidov tuman Kengashining 2024-yil 30-iyuldagi “Sharof Rashidov tumaning Zafarobod, Paxtakor, Zarbdor, Zomin, Baxmal, Gʻallaorol, Forish tumanlari hamda Jizzax shahri bilan ma’muriy-hududiy chegara chizigʻini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VI-59-102-3-46-K/24-sonli qaroriga oʻzgartirish kiritish toʻgʻrisida

Xalq deputatlari Sharof Rashidov tuman Kengashining 2024-yil 30-iyuldagi “Sharof Rashidov tumaning Zafarobod, Paxtakor, Zarbdor, Zomin, Baxmal, Gʻallaorol, Forish tumanlari hamda Jizzax shahri bilan ma’muriy-hududiy chegara chizigʻini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VI-59-102-3-46-K/24-sonli qaroriga oʻzgartirish kiritish toʻgʻrisidagi Respublika aerogeodeziya markazi Jizzax hududlararo boʻlinmasining 2025-yil 28-fevraldagi 01-35-sonli xatini inobatga olib, Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyaati toʻgʻrisida”gi qonunning 6-, 24-moddalari, Oʻzbekiston Respublikasi “Ma’muriy tartib-taomilari toʻgʻrisida”gi qonunninig 53-, 56-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Respublika aerogeodeziya markazi Jizzax hududlararo boʻlinmasi deriktori D.Shodmonbekovning 2025-yil 28-fevraldagi 01-35-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Sharof Rashidov tuman Kengashining 2024-yil 30-iyuldagi VI-59-102-3-46-K/24-sonli qarorining 1- va 2-ilovasi mazkur qarorning 1- va 2-ilovalariga muvofiq oʻzgartirilsin.

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining barcha domiy komissiyalari zimasiga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi XOLBUTAYEV MAXMUD PARSAMATOVICH

Xalq deputatlari Sharof Rashidov
tumani Kengashining
2025-yil 1-maydagi
VII-6-75-3-46-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining
TAVSIFI

Sharof Rashidov tumani, Zafarobod tumani va Forish tumanining chegara chiziqlari kesishgan joy, qir adirlik cho‘qqisida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. (*WGS-84 koordinatalar tizimda, shimoliy kenglik 40°18' 42,444", sharqiy uzoqlik 67°39' 33,501").*

A dan B gacha Zafarobod tumani yerlari bilan 1-12-nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i qir adirlik cho‘qqisi bo‘ylab avval janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1824 metr keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2018 metr so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 286 metr masofani o‘tib, beton ariq bo‘yidagi 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°18'03,031", sharqiy uzoqlik 67°41' 41,972").*

2-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda beton ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 2153 metr masofani o‘tib, beton ariq bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°17' 35,690", sharqiy uzoqlik 67°43' 04,828").*

3-nuqtadan chegara chizig‘i beton ariqdan dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1483 metr, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 601 metr masofani o‘tib, Jizzax bosh zovuri bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16' 57,863", sharqiy uzoqlik 67°44' 02,312").*

4-nuqtadan chegara chizig‘i Jizzax bosh zovurini kesib o‘tib, zovurga tutashadi va umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 2066 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16'34,563", sharqiy uzoqlik 67°45' 12,876").*

5-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Jizzax bosh zovurining suv oqimiga qarshi chap ko‘tarmasi bilan 1334 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 668 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16' 30,486", sharqiy uzoqlik 67°46' 33,609").*

6-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini, temir yo‘lni va zovurni kesib o‘tib, Jizzax bosh zovur ko‘tarmasiga tutashadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap ko‘tarmasi bilan 2884 metr

masofani o‘tib, zovur ko‘tarmasi bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°17′ 16,482″, sharqiy uzoqlik 67°48′ 19,565″).*

7-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Jizzax bosh zovurining suv oqimiga qarshi chap ko‘tarmasi bilan 752 metr masofani o‘tib, zovur ko‘tarmasi bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°17′ 05,557″, sharqiy uzoqlik 67°48′ 47,946″).*

8-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Jizzax bosh zovurining suv oqimiga qarshi chap ko‘tarmasi bilan 1852 metr masofani o‘tib, zovur ko‘tarmasi bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16′ 37,980″, sharqiy uzoqlik 67°49′ 57,382″).*

9-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Jizzax bosh zovurining suv oqimiga qarshi chap ko‘tarmasi bilan 2403 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yidagi 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°17′ 25,751″, sharqiy uzoqlik 67°51′ 16,692″).*

10-nuqtadan chegara chizig‘i i Jizzax bosh zovuridan dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2174 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 11-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 40°17′ 58,755″, sharqiy uzoqlik 67°52′ 37,854″).*

11-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 5395 metr masofani o‘tib, Sharof Rashidov, Zafarobod va Paxtakor tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, yo‘l bo‘yidagi 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°17′ 54,132″, sharqiy uzoqlik 67°56′ 25,695″).*

B dan D gacha Paxtakor tumani yerlari bilan 12-21-nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

12-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 1175 metr masofani o‘tib, Janubiy Mirzacho‘l kanaliga tutashadi va o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 589 metr masofada 4R35 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°17′48,732″, sharqiy uzoqlik 67°57′ 39,938″).*

13-nuqtadan chegara chizig‘i 4R35 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 7394 metr masofada kanalni kesib o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13′57,157″, sharqiy uzoqlik 67°56′19,252″).*

14-nuqtadan chegara chizig‘i 4R35 avtomobil yo‘lidan to‘g‘ri chiziq orqali temir yo‘lni kesib o‘tib, zovurga tutashadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 969 metr masofada 4R38 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13′47,759″, sharqiy uzoqlik 67°56′57,979″).*

15-nuqtadan chegara chizig‘i 4R38 avtomobil yo‘li ko‘prigi orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 31 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovurga tutashadi va avval janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 346 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 1269 metr, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 395 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur

bo‘yidagi 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°12'48,217", sharqiy uzoqlik 67°57'21,933").*

16-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1566 metr masofani o‘tib zovur bo‘yidagi 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°12'34,678", sharqiy uzoqlik 67°58'23,895").*

17-nuqtadan chegara chizig‘i zovurdan to‘gri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 76 metr masofada kanal va dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 783 metr masofani o‘tib, M39 avtomobil yo‘li bo‘yidagi 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°12'28,259", sharqiy uzoqlik 67°58' 55,809").*

18-nuqtadan chegara chizig‘i M39 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 200 metr masofani o‘tadi, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 44 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°12'23,756", sharqiy uzoqlik 67°59'03,961").*

19-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 759 metr, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan unumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 319 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°11'52,840", sharqiy uzoqlik 67°58' 57,461").*

20-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 941 metr masofani o‘tib, Sharof Rashidov, Zarbdor va Paxtakor tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy yo‘l bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°11'43,440", sharqiy uzoqlik 67°59' 35,285").*

D dan E gacha Zarbdor tumani yerlari bilan 21-41-nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

21-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan to‘g‘ri chiziq orqali kanal va zovurni kesib o‘tib, zovur ko‘tarmasiga tutashadi va janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap ko‘tarmasi bilan 1239 metr masofani o‘tib, zovur ko‘tarmasi bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°11' 10,149", sharqiy uzoqlik 67°59' 06,101").*

22-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap ko‘tarmasi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 940 metr masofani o‘tib, zovur ko‘tarmasi bo‘yidagi 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°10' 44,820", sharqiy uzoqlik 67°59'27,050").*

23-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib, zovur ko‘tarmasiga tutashadi va umumiy janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap ko‘tarmasi bilan 3161 metr masofani o‘tib, zovur ko‘tarmasi bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'04,570", sharqiy uzoqlik 67°59'47,317").*

24-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap ko‘tarmasi bilan 232 metr masofada zovurtini kesib o‘tib, zovur ko‘tarmasi bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'05,173", sharqiy uzoqlik 67°59' 57,094").*

25-nuqtadan chegara chizig‘i chizig‘i zovurni kesib o‘tib, zovur ko‘tarmasiga tutashadi va avval janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap ko‘tarmasi bilan 564 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 669 metr, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 424 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°08'25,045", sharqiy uzoqlik 68°00' 33,513").*

26-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1583 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°08' 48,680", sharqiy uzoqlik 68°01' 32,245").*

27-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan avval janubiy-sharqiy yo‘nalishda 118 metr keyin umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 207 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°08' 44,770", sharqiy uzoqlik 68°01' 44,412").*

28-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan avval janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 611 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 314 metr, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 104 metr masofani o‘tib, yo‘l burilishida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°08' 13,800", sharqiy uzoqlik 68°01' 51,066").*

29-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 169 metr masofani o‘tib, suv quvuriga tutashadi va o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda suv quvurining o‘ng tomoni bilan bilan 677 metr masofada zovurni kesib o‘tib, suv quvuri bo‘yidagi, 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°08' 13,754", sharqiy uzoqlik 68°02' 26,733").*

30-nuqtadan chegara chizig‘i suv quvuridan zovur ko‘tarmasiga tutashadi va avval umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap ko‘tarmasi bilan 1972 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 506 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°07'08,000", sharqiy uzoqlik 68°03'21,746").*

31-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 800 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'56,765", sharqiy uzoqlik 68°02'51,322").*

32-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 660 metr masofada zovurni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan, 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'39,959", sharqiy uzoqlik 68°02'34,186").*

33-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap ko‘tarmasi bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1246 metr masofani o‘tib, zovur

koʻtarmasida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'59,158", sharqiy uzoqlik 68°01'48,410").*

34-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab chap koʻtarmasi bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 660 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'48,817", sharqiy uzoqlik 68°01'24,124").*

35-nuqtadan chegara chizigʻi avval umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomon koʻtarmasi bilan 952 metr keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 512 metr masofani oʻtib, zovur koʻtarmasida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'11,643", sharqiy uzoqlik 68°01'57,063").*

36-nuqtadan chegara chizigʻi zovurni kesib oʻtib, zovurga tutashadi va janubiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap koʻtarmasi bilan 819 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'45,376", sharqiy uzoqlik 68°01'56,287").*

37-nuqtadan chegara chizigʻi zovurndan toʻgʻri chiziq orqali A376 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, zovurga tutashadi va janubiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap koʻtarmasi bilan 300 metr masofani oʻtib, temir yoʻl simtoʻsigʻi boʻyida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'36,127", sharqiy uzoqlik 68°01'54,795").*

38-nuqtadan chegara chegara temir yoʻl simtoʻsigʻi boʻylab sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1389 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, temir yoʻl yoʻl boʻyidagi 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'28,874", sharqiy uzoqlik 68°02'52,128").*

39-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan temir yoʻl simtoʻsigʻiga oʻtadi va temir yoʻl simtoʻsigʻi boʻylab sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 2092 metr masofani oʻtib, temir yoʻl simtoʻsigʻi boʻyidagi 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'06,680", sharqiy uzoqlik 68°04'14,976").*

40-nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻl simtoʻsigʻi boʻylab sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1798 metr masofani oʻtib, Sharof Rashidov, Zarbdor va Zomin tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy temir yoʻl simtoʻsigʻi boʻyidagi 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'46,736", sharqiy uzoqlik 68°05'25,700").*

E dan F gacha Zomin tumani yerlari bilan 41-68-nuqtalar oraligʻidagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

41-nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chiziq orqali janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 96 metr masofada temir yoʻlni kesib oʻtib, quruq ariqqa tutashadi va quruq ariqning oʻng tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 172 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'38,085", sharqiy uzoqlik 68°05' 24,753").*

42-nuqtadan chegara chizigʻi quruq ariqdan toʻgʻri chiziq orqali zovurni kesib oʻtib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 869 metr, masofani oʻtib, quruq ariq boʻyida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04' 10,602", sharqiy uzoqlik 68°05' 16,795").*

43-nuqtadan chegara chizig‘i quruq ariqning o‘ng tomoni bilan avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1908 metr, keyin ariqning chap tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 1424 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°02′ 25,457″, sharqiy uzoqlik 68°04′ 50,912″).*

44-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda 484 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°02′ 25,859″, sharqiy uzoqlik 68°04′ 30,548″).*

45-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 5908 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°59′ 19,326″, sharqiy uzoqlik 68°03′ 51,228″).*

46-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 218 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°59′ 12,597″, sharqiy uzoqlik 68°03′ 48,449″).*

47-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1464 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°58′ 32,829″, sharqiy uzoqlik 68°03′ 57,781″).*

48-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1335 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°58′ 01,160″, sharqiy uzoqlik 68°03′ 22,271″).*

49-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan quruq soyga tutashadi va quruq soyning chap tomoni bo‘ylab umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 961 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°57′ 34,775″, sharqiy uzoqlik 68°03′ 08,269″).*

50-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning chap tomoni bo‘ylab umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1389 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°57′ 06,832″, sharqiy uzoqlik 68°02′ 42,308″).*

51-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning chap tomoni bo‘ylab umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 697 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasiga tutashadi keyin haydalma yer chegarasi bo‘ylab o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 172 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56′ 46,548″, sharqiy uzoqlik 68°02′ 22,390″).*

52-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 632 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56′41,635″, sharqiy uzoqlik 68°02′ 01,095″).*

53-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasidan quruq soyga o‘tadi, va quruq soyning chap tomoni bo‘ylab umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy

yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 505 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°56′ 27,792″, sharqiy uzoqlik 68°01′ 56,250″).*

54-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 618 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56′ 16,373″, sharqiy uzoqlik 68°02′ 06,320″).*

55-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 392 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 56-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°56′ 12,465″, sharqiy uzoqlik 68°01′ 50,883″).*

56-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab avval umumiy janubiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 798 metr masofani o‘tadi, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 139 metr, masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°55′ 45,730″, sharqiy uzoqlik 68°01′ 49,570″).*

57-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 344 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 58-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°55′ 36,228″, sharqiy uzoqlik 68°01′ 56,809″).*

58-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bo‘ylab avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 742 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 509 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 59-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°55′ 01,510″, sharqiy uzoqlik 68°01′ 54,376″).*

59-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan avval umumiy janubiy yo‘nalishda 690 metr keyin yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 311 metr masofada quruq soyni kesib o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 60-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°54′ 35,089″, sharqiy uzoqlik 68°01′ 47,410″).*

60-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1724 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 61-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53′ 44,912″, sharqiy uzoqlik 68°01′ 32,436″).*

61-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan avval umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1279 metr, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 358 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 62-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53′ 03,768″, sharqiy uzoqlik 68°01′ 15,727″).*

62-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan avval umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 641 metr keyin, yo‘lning janub tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 690 metr, masofani o‘tib yo‘l bo‘yida joylashgan 63-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°52′ 48,936″, sharqiy uzoqlik 68°0′ 46,884″).*

63-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan quruq soyga o‘tadi, keyin quruq soyning chap tomoni bo‘ylab avval umumiy janubiy yo‘nalishda barcha

burilishlarni hisobga olgan holda 1230 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 553 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 64-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°51'58,728", sharqiy uzoqlik 68°00' 45,171").*

64-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab avval umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 507 metr keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 593 metr, masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 65-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°51' 52,212", sharqiy uzoqlik 68°0' 30,538").*

65-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 267 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarsida joylashgan 66-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°51'46,296", sharqiy uzoqlik 68°00' 24,694").*

66-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab avval janubiy yo‘nalishda 644 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 713 metr masofani o‘tib haydalma yer chegarasida joylashgan 67-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°51' 09,302", sharqiy uzoqlik 68°00' 06,474").*

67-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval janubiy yo‘nalishda 429 metr masofada soyni kesib o‘tib, quruq soyga tutashadi va soyning chap tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2115 metr masofani o‘tib keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali, janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1482 metr masofani o‘tib, Sharof Rashidov Zomin va Baxmal tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy tog‘ cho‘qqisida (xrebet) joylashgan 68-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°49' 37,960", sharqiy uzoqlik 67°58' 32,856").*

F dan G gacha Baxmal tumani yerlari bilan 68– 86- nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

68-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ cho‘qqisi (xrebet) bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 7079 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1361 metr masofani o‘tib, tog‘ cho‘qqisida (xrebet) joylashgan 70-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°51' 21,750", sharqiy uzoqlik 67°53'50,243").*

69-nuqtadan chegara chizig‘i tog‘ cho‘qqisi (xrebet) bo‘ylab, umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 4431 metr masofani o‘tib, tog‘ cho‘qqisida (xrebet) joylashgan 70-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°51' 46,609", sharqiy uzoqlik 67°51' 19,896").*

70-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1620 metr masofani o‘tib, qir adirlik yonbag‘rida joylashgan 71-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°52' 07,950", sharqiy uzoqlik 67°50' 17,771").*

71-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 227 metr masofani o‘tib, qir adirlik yonbag‘rida joylashgan 72-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°52' 14,734", sharqiy uzoqlik 67°50' 21,420").*

72-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 862 metr masofani o‘tib haydalma yer chegarasiga tutashadi, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali, shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 888 metr masofani o‘tib, qir adirlik yonbag‘rida joylashgan 73-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°52′ 52,288″, sharqiy uzoqlik 67°49′ 34,842″).*

73-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 524 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yidagi 74-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 39°53′ 06,578″, sharqiy uzoqlik 67°49′ 44,254″).*

74-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 123 metr masofani o‘tib haydalma yer chegarasiga tutashadi va haydalma yer chegarasi bo‘ylab, umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 736 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasi bo‘yida joylashgan 75-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53′ 26,035″, sharqiy uzoqlik 67°49′ 40,554″).*

75-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 397 metr masofada quruq soyni kesib o‘tib, quruq soy bo‘yida joylashgan 76-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53′ 32,471″, sharqiy uzoqlik 67°49′ 26,092″).*

76-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning o‘ng tomoni bilan umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 773 metr masofani o‘tib quruq soy bo‘yida joylashgan 77-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53′ 13,252″, sharqiy uzoqlik 67°49′ 09,099″).*

77-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chizig‘i orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 387 metr masofani o‘tib,quruq soyga tutashadi va quruq soyning chap tomoni bo‘ylab, umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 237 metr masofani o‘tib, quruq soy bo‘yida joylashgan 78-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53′ 29,972″, sharqiy uzoqlik 67°48′ 59,685″).*

78-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning o‘ng tomoni bo‘ylab g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1538 metr masofani o‘tib soy bo‘yidagi 79-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53′06,150″, sharqiy uzoqlik 67°48′08,615″).*

79-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soydan haydalma yer chegarasiga o‘tadi va haydalma yer chegarasi bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 658 metr masofada soyni kesib o‘tib soy bo‘yida joylashgan 80-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53′19,071″, sharqiy uzoqlik 67°47′46,728″).*

80-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning chap tomoni bo‘ylab, umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 813 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 81-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53′10,644″, sharqiy uzoqlik 67°47′17,414″).*

81-nuqtadan chegara chizig‘i, haydalma yer chegarasi bo‘ylab avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 231 metr keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 165 metr masofada quruq soyni kesib o‘tib soy bo‘yida joylashgan 82-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53′19,403″, sharqiy uzoqlik 67°47′17,687″).*

82-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning chap tomoni bo‘ylab, umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 866 metr masofani o‘tib, quruq soy bo‘yida joylashgan joylashgan 83-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53'42,131", sharqiy uzoqlik 67°47' 31,334").*

83-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning chap tomoni bo‘ylab, umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 415 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 84-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53'38,691", sharqiy uzoqlik 67°47' 15,377").*

84- nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 192 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 85-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53' 44,356", sharqiy uzoqlik 67°47' 17,976").*

85-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab avval umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 162 metr keyin shimoliy yo‘nalishda 175 metr masofani o‘tadi, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 139 metr so‘ng to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy barcha burilishlarni hisobga olgan holda 900 metr masofani o‘tib haydalma yer chegarasiga tutashadi, so‘ngra haydalma yer chegarasi bo‘ylab, shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 45 metr masofani o‘tib, Sharof Rashidov, G‘allaorol va Baxmal tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy haydalma yer chegarasida joylashgan 86-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°54' 03,755", sharqiy uzoqlik 67°46' 33,336").*

G dan H gacha G‘allaorol tumani yerlari bilan 86– 95 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

86-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 962 metr keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 205 metr so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 578 metr, masofani o‘tib haydalma yer chegarasida joylashgan 87-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°54' 43,815", sharqiy uzoqlik 67°46' 59,076").*

87-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasidan dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 205 metr masofani o‘tib haydalma yer chegarasiga o‘tadi, keyin haydalma yer chegarasi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 385 metr masofani o‘tib quruq soyga tutashadi va soyning chap tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 415 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi keyin yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1263 metr so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2014 metr masofani o‘tib haydalma yer chegarasida joylashgan 88-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56' 24,670", sharqiy uzoqlik 67°46' 19,060").*

88-nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab avval umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2141 metr keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 732 metr keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1321 metr keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 458 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 672 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 558 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 96

metr, masofani oʻtib, haydalma yer chegarasida joylashgan 89-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°58′ 10,957″, sharqiy uzoqlik 67°45′ 55,539″).*

89-nuqtadan chegara chizigʻi haydalma yer chegarasi boʻylab umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 564 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga tutashadi va dala tuproq yoʻlining avval janub tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 136 metr keyin keyin gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 94 metr masofani oʻtib haydalma yer chegarasiga tutashadi keyin haydalma yer chegarasi boʻylab umumiy gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 584 metr soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 302 metr, soʻngra shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 729 metr, masofada quruq soyni kesib oʻtib, soy boʻyida joylashgan 90-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°58′45,181″, sharqiy uzoqlik 67°45′16,683″).*

90-nuqtadan chegara chizigʻi quruq soyning oʻng tomoni bilan umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 416 metr masofani oʻtib, haydalma yer chegarasiga tutashadi va haydalma yer chegarasi boʻylab avval shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 580 metr keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 398 metr keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 507 metr soʻng shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 257 metr soʻngra gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 316 metr, masofani oʻtib, haydalma yer chegarasida joylashgan 91-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°59′ 02,411″, sharqiy uzoqlik 67°44′ 14,679″).*

91-nuqtadan chegara chizigʻi haydalma yer chegarasi boʻylab umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 435 metr masofani oʻtib quruq soyga tutashadi va quruq soyning chap tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 601 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 658 metr, masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 92-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°59′27,134″, sharqiy uzoqlik 67°43′ 30,806″).*

92-nuqtadan chegara chizigʻi quruq soydan haydalma yer chegarasiga tutashadi va haydalma yer chegarasi boʻylab umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1524 metr masofani oʻtib, haydalma yer chegarasida joylashgan 93-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°59′ 22,233″, sharqiy uzoqlik 67°42′ 30,073″).*

93-nuqtadan chegara chizigʻi haydalma yer chegarasidan quruq soyga tutashadi va quruq soyning chap tomoni bilan umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2939 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 94-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°0′ 43,497″, sharqiy uzoqlik 67°42′ 48,447″).*

94-nuqtadan chegara chizigʻi quruq soydan toʻgʻri chegara chizigʻi orqali gʻarbiy yoʻnalishda 375 metr masofada haydalma yer chegarasiga tutashadi va haydalma yer chegarasi boʻylab umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1724 metr masofani oʻtib keyin toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 919 metr masofani oʻtib, Sharof Rashidov, tumani, Gʻallaorol tumani va Jizzax shahri chegara chiziqlari kesishgan joy, haydalma yer chegarasida joylashgan 95-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°01′ 30,133″, sharqiy uzoqlik 67°41′ 50,318″).*

H dan I gacha Jizzax shahar yerlari bilan 95– 201 - nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:

95 - nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 263 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 292 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasi bo‘yida joylashgan 96-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°01'23,716", sharqiy uzoqlik 67°41' 57,150").*

96- nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1027 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 97-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°01' 41,039", sharqiy uzoqlik 67°42' 22,362").*

97- nuqtadan chegara chizig‘i haydalma yer chegarasi bo‘ylab avval umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 423 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 328 metr, va shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 108 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 98-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°01'40,458", sharqiy uzoqlik 67°42'45,271").*

98- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1196 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 99-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°02' 11,609", sharqiy uzoqlik 67°42' 22,085").*

99- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan haydalma yer chegarasiga o‘tib, keyin haydalma yer chegarasi bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2857 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 100-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'01,749", sharqiy uzoqlik 67°44'01,318").*

100- nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 598 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 101-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°02'49,287", sharqiy uzoqlik 67°44'20,614").*

101- nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tib tuproq ko‘tarmasiga tutashadi, keyin tuproq ko‘tarmasi bo‘ylab umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 936 metr masofani o‘tib, tosh maydalash sexi chegarasiga tutashadi va tosh maydalash sexi chegarasi bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 332 metr masofani o‘tib, quruq soyga tutashadi so‘ng quruq soyning o‘ng tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 297 metr masofani o‘tib, quruq soy bo‘yida joylashgan 102-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'18,836", sharqiy uzoqlik 67°44'41,526").*

102 - nuqtadan chegara chizig‘i quruq soyning o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 188 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasiga tutashadi va haydalma yer chegarasi bo‘ylab avval shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 318 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 262 metr so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 363 metr masofani o‘tib, haydalma yer chegarasida joylashgan 103-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°3'45,132", sharqiy uzoqlik 67°44'32,993").*

103- nuqtadan chegara chizigʻi haydalma yer chegarasidan dala tuproq yoʻliga oʻtadi va dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1413 metr masofani oʻtib, haydalma yer chegarasiga tutashadi va haydalma yer chegarasi boʻylab sharqiy yoʻnalishda 340 metr masofani oʻtib haydalma yer chegarasida joylashgan 104-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°03'57,548", sharqiy uzoqlik 67°45'43,622").*

104- nuqtadan chegara chizigʻi haydalma yer chegarasi boʻylab avval umumiy shimoliy yoʻnalishda 528 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 191 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 302 metr, soʻng masofani oʻtib, haydalma yer chegarasida joylashgan 105-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'25,274", sharqiy uzoqlik 67°45'40,994").*

105- nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 674 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 106-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04' 37,511", sharqiy uzoqlik 67°46'03,301").*

106 - nuqtadan chegara chizigʻi toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 231 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 107-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'43,724", sharqiy uzoqlik 67°45'57,886").*

107 - nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 811 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 108-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°4'35,959", sharqiy uzoqlik 67°45'26,886").*

108 - nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan quruq soyga oʻtadi va quruq soyning chap tomoni bilan avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 485 metr keyin shimoliy yoʻnalishda 496 metr masofani oʻtib, quruq ariq boʻyida joylashgan 109-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°4'55,367", sharqiy uzoqlik 67°45'08,111").*

109 - nuqtadan chegara chizigʻi quruq ariqning chap tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 523 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 110-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'04,194", sharqiy uzoqlik 67°45' 26,461").*

110 - nuqtadan chegara chizigʻi quruq ariqdan haydalma yer chegarasiga oʻtadi va haydalma yer chegarasi boʻylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 861 metr masofani oʻtib, haydalma yer chegarasida joylashgan 111-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'01,251", sharqiy uzoqlik 67°45'57,438").*

111- nuqtadan chegara chizigʻi haydalma yer chegarasidan dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning shimol tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 550 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 112-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05' 15,967", sharqiy uzoqlik 67°45' 45,151").*

112- nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 229 metr keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 231 metr masofani oʻtib, daryo qirgʻogʻiga oʻtadi va daryoning suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1682

metr masofani oʻtadi, soʻng toʻgʻri chiziq orqali janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 30 metr masofani oʻtib, haydalma yer chegarasi boʻyida joylashgan 113-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'42,667", sharqiy uzoqlik 67°46'58,181").*

113 - nuqtadan chegara chizigʻi ariqdan haydalma yer chegarasiga oʻtib, keyin haydalma yer chegarasi boʻylab avval janubiy yoʻnalishda 503 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 78 metr, soʻng umumiy sharqiy yoʻnalishda 227 metr masofani oʻtib, haydalma yer chegarasi boʻyida joylashgan 114-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°05'32,417", sharqiy uzoqlik 67°47'6,652").*

114 - nuqtadan chegara chizigʻi haydalma yer chegarasidan qir adir yonbagʻrlariga oʻtadi keyin qir adir yonbagʻrlari boʻylab umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda 626 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, yoʻlga tutashadi keyin yoʻlning avval janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 921 metr soʻng sharq tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 314 metr masofani oʻtib soʻngra quruq chiziq orqali janubiy-sharqiy yoʻnalishda 263 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 115-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'43,678", sharqiy uzoqlik 67°47'55,273").*

115- nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 353 metr, masofani oʻtib haydalma yer chegarasiga tutashadi, keyin haydalma yer chegarasi boʻylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 613 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 116-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'56,207", sharqiy uzoqlik 67°48'30,357").*

116- nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 440 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga oʻtadi, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 465 metr masofani oʻtib, qir adir yonbagʻri boʻyida joylashgan 117-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'34,563", sharqiy uzoqlik 67°48'38,175").*

117 - nuqtadan chegara chizigʻi qir adir yonbagʻri boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda 135 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtadi, keyin yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 71 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasiga tutashadi, soʻng tomorqa chegarasi boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda 132 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasi boʻyida joylashgan 118-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'29,890", sharqiy uzoqlik 67°48'48,801").*

118 - nuqtadan chegara chizigʻi qir adir yonbagʻri boʻylab avval sharqiy yoʻnalishda 256 metr masofada keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 359 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga tutashadi soʻng yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 92 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 119-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'20,751", sharqiy uzoqlik 67°49'12,252").*

119 - nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 378 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 120-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'8,961", sharqiy uzoqlik 67°49'13,787").*

